

Theoretical Foundations Of Collocations And Lexical Units In English Literary Texts

Abbasova Nargiza Kabilovna

PhD, Associate Professor, Fergana State University

Adxamova Shirin Farxodjon qizi

Seeker, shirinadxamova@gmail.com

Abstract

The present article explores the theoretical foundations of collocations and lexical units in English literary texts. Collocations, understood as the habitual and recurrent co-occurrence of words, contribute to the semantic cohesion and stylistic distinctiveness of the text. Lexical units—particularly idiomatic expressions, metaphors, and phraseological constructions—play a crucial role in shaping the artistic and aesthetic qualities of literary discourse. The study further examines theoretical approaches to these phenomena (Firth, Halliday, Sinclair, and others) and analyzes their functional role in literary texts.

Keywords: collocation, lexical unit, English literature, semantics, phraseology, linguopoetics, stylistics.

Annotatsiya

Mazkur maqolada ingliz adabiy matnlarida kollokatsiyalar va leksik birliklarning nazariya asoslari tahlil etiladi. Kollokatsiyalar tildagi soʻzlarning odatiy va doimiy tarzda birga ishlatilish hodisasi boʻlib, matnning semantic yaxlitligi va stilistik xususiyatlarini taʼminlaydi. Leksik birliklar, xususan idiomatik iboralar, metaforalar va frazeologizmlar, matnning badiiy-estetik jihatlarini shakllantiradi. Tadqiqot davomida mazkur birliklarning nazariy yondashuvlari (Firth, Halliday, Sinclair va boshqalar) hamda adabiy matnlardagi funksional rolik koʻrib chiqildi.

Kalit soʻzlar: kollokatsiya, leksikbirlik, inglizadabiyoti, semantika, frazeologiya, lingvopoetika, stilistika.

KIRISH

Adabiy matnlar tilning eng murakkab va estetik boy shakllanishidir. Tilshunoslikda adabiy tilni oʻrganishda kollokatsiyalar va leksik birliklar asosiy roʻl oʻynaydi. Kollokatsiyalar – bu ikki yoki undan ortiq soʻzning tabiiy tarzda yonma-yon qoʻllanishi (Firth, 1957, p. 45) boʻlib, ular matnda semantik aniqlik va stilistik uygʻunlik yaratadi. Leksik birliklar esa – bu tilning barqaror, koʻpincha tayyor holatda ishlatiladigan, baʼzida idiolektaltusga ega boʻlgan frazeologik birliklari, idiomalar, metaforalar va boshqalardir.

Tilshunos olimlar bu hodisalarga turli yondashuvlarni ishlab chiqqan: J. Firth kollokatsiyani semantic maydon ichidagi doimiylik deb qaraydi, J. Sinclair esa uni korpus tilshunosligi nuqtai nazaridan empiric tahlil qiladi. Ushbu maqolada ingliz

adabiy matnlaridagi kollokatsiyalar va leksik birliklar nazariy jihatdan tahlil qilinadi, ularning badiiy matn yaratishdagi asosiy funksiyalari aniqlanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ushbu tadqiqotda ingliz adabiy matnlaridagi kollokatsiyalar va leksik birliklarning nazariy asoslarini aniqlash, ularning lingvopoetik vazifalarini ochib berish maqsadida koʻp qirrali yondashuvlar asosida ishlov berildi. Metodologik yondashuvlar tanlanishda tadqiqotning ikki asosiy yoʻnalishi – nazariy tahlil va amaliy tadqiqot bir-birini toʻldiradigan tarzda uygʻunlashtirildi.

Quyidagi metodlar tadqiqotning asosiy bosqichlarini tashkil etdi:

Deskriptiv-analitikusul

Bu usul yordamida ingliz adabiy matnlarida ishlatilgan kollokatsion birliklar, leksik kombinatsiyalar va badiiy ifoda vositalari

tavsiflandi hamda semantic va stilistik nuqtayi nazardan tahlil qilindi. Har bir birlik:

- Struktura jihatidan (ya'ni, Grammatik shakli va sintaktik roli);
- leksik-semantic jihatdan (ya'ni, ma'no qatlamlari va konnotatsiyasi);
- kontekstual vazifasi bo'yicha o'rganildi.

Misol uchun, Shakespeare dramalaridagi "green-eyed monster (Leech, 1969, p. 112)" ifodasi faqatgina tasvir emas, balki allegorik ma'noga ega bo'lgan kollokatsiya sifatida tahlil qilindi.

Komponent tahlil

Ushbu usul orqali kollokatsiyalarning tarkibiy qismlari – ya'ni ularni tashkil qiluvchi so'zlar alohida semantic birliklar sifatida o'rganildi. Maqsad – har bir komponentning asosiy lug'aviy ma'nosi va kollokatsiya tarkibidagi metaforik yoki stilistik yuklamasini ajratib ko'rsatishdir.

Misol uchun:

- "cold silence" birikmasida "cold" so'zi asl ma'noda haroratga oid bo'lsa-da, bu yerda emotsional sovuqlik, ruhiy befarqlik ma'nosida ishlatilgan.
- Bu esa so'zning semantic siljishi va kontekstual talqinini ochib beradi.

Korpus tahlili

Real adabiy matnlardan misollar olish uchun korpus lingvistikasi yondashuvidan foydalanildi. Buning uchun quyidagi elektron korpuslar ishlatildi:

- COCA (Corpus of Contemporary American English) (Sinclair, 1991, p. 67)
- BNC (British National Corpus)

Bu yondashuv orqali adabiy matnlarda qaysi kollokatsiyalar ko'p ishlatilgani, ular qanday kontekstlarda paydo bo'lishi va qanday stilistik rang kasb etishi empirik ma'lumotlar asosida tahlil qilindi. Bundan tashqari, bumetodoriqalisynchronicvsdiachronicfarql arihamkuzatildi — ya'ni klassik va zamonaviy adabiyotda kollokatsion birliklarning o'zgarishi.

Lingvopoetik tahlil

Ushbu yondashuv adabiy matnning poetik, estetik va semantic qatlamlarini ochib berishga xizmat qildi. Lingvopoetik tahlil orqali kollokatsiyalar:

- Muallif uslubini shakllantirishdagi roli;
- Obrazlar va sahna tuyg'ularini ifodalashdagi vazifasi;
- Emotsional yuklama va konnotativ ma'no yaratishdagi funksiyasi nuqtayi nazaridan o'rganildi.

Masalan, Virginia Woolf prozasida uchraydigan "waves murmuring memories" kabi leksik birliklar lingvopoetik vosita sifatida tahlil qilinib, ularning ritmik, musiqiy va emotsional xususiyatlari baholandi.

Komparativ tahlil

Tadqiqot doirasida turli adiblarning asarlarida kollokatsiyalar va frazeologik birliklar qanday ishlatilgani taqqoslab o'rganildi. Quyidagi mualliflar tanlandi:

- William Shakespeare – klassik metaforik til,
- Charles Dickens – ijtimoiy kontekstdagi emotsional kollokatsiyalar,
- Virginia Woolf – modernistik lingvopoetika,
- James Joyce – eksperimental til va assotsiativ kollokatsiyalar.

Bu mualliflar asarlaridagi leksik birliklar fonetik uyg'unlik, metaforik chuqurlik, stilistik innovatsiya kabi mezonlar asosida taqqoslab tahlil qilindi. Shuningdek, ularning matnlarida ishlatilgan kollokatsiyalarning o'quvchi tafakkuriga ko'rsatadigan ta'siri baholandi.

Pedagogik kuzatuv (amaliyqo'shimcha)

Metodologik tahlilni boyitish maqsadida, adabiy matnlardan foydalanilgan darslarda o'quvchilarning lingvopoetik kompetensiyani rivojlantirishdagi holati ham amaliy jihatdan kuzatildi. O'quvchilarning:

- Kollokatsiyalarni anglash darajasi;
 - Badiiy tafakkur orqali matnni talqin qilish qobiliyati;
 - Estetik fikr yuritish imkoniyati – dars kuzatuvlari asosida qayd etildi.
- Bu esa metodologiyani nafaqat nazariy, balki ta'limiy nuqtayi nazardan ham boyitdi.

Umumiy metodologik yondashuv xulosasi:

Tadqiqotda bir nechta metodning integratsiyasi orqali adabiy matnlardagi kollokatsion birliklar har tomonlama tahlil qilindi:

- Deskriptiv – kuzatish va tavsiflash;
- Analitik – semantik va stilistik tahlil;
- Empirik – real matnlar asosida korpus orqali dalillash;
- Poetik – estetik va obrazli talqin;
- Taqqoslov – turli mualliflar tili orqali tiplash;
- Pedagogik – amaliy dars kuzatuv orqali o'quvchi qobiliyatini baholash.

Shu tarzda, kollokatsiyalar va leksik birliklar faqat tilshunoslik obyekti emas, balki lingvopoetik va didaktik ahamiyatga ega adabiy fenomen sifatida har tomonlama o'rganildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqot natijalariga ko'ra, ingliz adabiy matnlarida kollokatsiya va leksik birliklar quyidagi nazariy va amaliy jihatlarida namoyon bo'ladi:

Kollokatsiyaning semantic va strukturaviy turlari

- Erkin kollokatsiyalar: open the door, take a look.
- Yarim-erkin kollokatsiyalar: heavy rain, strong tea.
- Barqaror kollokatsiyalar: make a decision, pay attention.

Leksik birliklarning badiiy ifodadagi roli

- Idiomalar: break the ice, spill the beans.
- Metaforalar: Time is a thief (Joyce), The world is a stage (Shakespeare).
- Frazologik birliklar: at the end of the day, through thick and thin

Kollokatsiyalar orqali obraz va kayfiyat yaratish

Masalan, Charles Dickens asarlarida "solemn silence", "bitter cold" kabi kollokatsiyalar personajlar kechinmalarini va sahna muhitini tasvirlash uchun ishlatilgan.

Ingliz adabiy matnlarida qo'llaniladigan kollokatsiyalar va leksik birliklar faqatgina tildagi semantic birliklar emas, balki lingvopoetik vosita sifatida faoliyat ko'rsatadi. Ya'ni, bu birliklar orqali adabiy matnda badiiy-estetik mazmun, psixologik obrazlar, va stilistik niyatlar aniq va sezilarli tarzda ifodalanadi. Ular adabiy tilning ko'p qatlamli semantic strukturasi ichida muallif tomonidan ongli ravishda tanlanadi va o'quvchi tomonidan kontekst asosida talqin qilinadi.

Ushbu birliklar orqali:

- Muallif o'z uslubini yaratadi – har bir yozuvchi o'ziga xos kollokatsion tanlov va leksik kombinatsiyalar orqali o'z stilistik imzosini qoldiradi. Masalan, Virginia Woolf asarlaridagi "waves whispering" yoki Shakespeare' dagi "sickled moon" kabi ifodalar muallif uslubining poetic jihatini ochib beradi.

- Obrazlarning psixologik holati va muhit tasvirlanadi – kollokatsiyalar yordamida muayyan holatdagi personaj ruhiyati yoki voqea sahnasining emotsional fonini yaratish mumkin. Masalan, Dickens asarlaridagi "solemn hush", "dreary weather" kabi iboralar qorong'u, ezma kayfiyatni uyg'otadi.

- Estetik yuklamalar bilan matnning badiiyligi oshiriladi – ko'p hollarda, kollokatsiyalar va idiomatic birliklar matnga estetik nafasat, ritmik uyg'unlik va musiqiylik olib kiradi.

- Matn ichidagi yashirin konnotatsiyalar ochiladi – bu birliklar ko'pincha bevosita aytilmagan, lekin kontekstual ma'noda tushunarli bo'lgan chuqur mazmun qatlamlarini bildiradi. Aynan shu orqali o'quvchi matnni faqat tushunmaydi, balki his qiladi, idrok etadi.

Nazariy asoslar tahlili

J.R. Firth tilshunoslikda "You shall know a word by the company it keeps" degan mashhur g'oyani ilgari surgan bo'lib, bu fikrga ko'ra so'zning ma'nosi u bilan birga keluvchi so'zlar orqali shakllanadi. Firth

kollokatsiyani semantic maydon doirasida izohlaydi, ya'ni biror so'z boshqa qanday birliklar bilan birga kelishiga qarab uning semantic nozikliklari ochiladi. Adabiy matnlarda bu ayniqsa, ahamiyatlidir – muallif so'z tanlash orqali o'quvchida kerakli obraz yoki kayfiyatni uyg'otadi.

John Sinclair esa korpus lingvistikasi asosida kollokatsiyalarni tadqiq etadi (Sinclair, 1991, p. 72). U kollokatsiyalarni "prefabricated chunks", ya'ni "oldindan shakllangan, kontekstda to'liq va mustaqil birlik sifatida ishlatiladigan leksik bo'laklar" deb ataydi. Bunday birliklar matnda avtomatik tarzda badiiy tasavvurni faollashtiradi. O'quvchi ularni tahlil qilmaydi, balki intuitiv ravishda anglaydi. Masalan, "cold silence", "burning desire", yoki "golden opportunity" kabi iboralar o'quvchining tafakkurida to'liq semantic obraz sifatida paydo bo'ladi.

Bu ikki yondashuvdan kelib chiqib, adabiy matnlardagi kollokatsiyalar semantic sathda bog'langan, stilistik yuklamaga ega bo'lgan tayyor birliklar sifatida qaralishi kerak.

Lingvopoetik kompetensiya shakllanishida ahamiyati:

O'rta ta'lim maktabi o'quvchilari uchun kollokatsiya va leksik birliklarni adabiy matnlar kontekstida tahlil qilish:

- So'z boyligini oshiradi, lekin bu oddiy lug'aviy yodlash emas, balki kontekst asosida semantic tushunishga asoslangan bo'ladi;
- Metaforik tafakkur va estetik idrok shakllanishiga xizmat qiladi;
- Matnni falsafiy, madaniy va psixologik jihatdan talqin qilish ko'nikmasini rivojlantiradi;
- O'quvchilarda kontekstual tushunish, matnlararo bog'liqlik, stilistik sezgirlik singari chuqur til kompetensiyalari rivojlanadi.

Masalan, Robert Frostning she'rlarida uchraydigan "path not taken" iborasi nafaqat fizika jihatdan, balki hayotiy tanlovlar, afsus va afzalliklar metaforasini

anglatadi. Bunday kollokatsiyani anglash o'quvchidan faqat lug'at bilimini emas, balki badiiy idrok talab qiladi.

XULOSA

Adabiy matnlarda kollokatsiya va leksik birliklar orqali nafaqat til ishlatiladi, balki badiiy obrazlar yaratiladi, emotsional kontekst hosil qilinadi va muallifning stilistik dunyoqarashi ifodalanadi. Tilshunoslik nazariyalari (Firth, Sinclair) bu jarayonning ilmiy asosini beradi (Halliday, 1985, p. 89), ammo ta'limiy kontekstda ularning amaliy tatbiqi lingvopoetik kompetensiyani shakllantirish orqali o'z samarasini ko'rsatadi. Shu bois, ingliz tili darslarida bunday birliklarni tahlil qilishni faqat grammatika yoki lug'at darajasida emas, balki adabiy-estetik va semantic kontekstda o'rgatish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- Firth, J.R. (1957). Papers in Linguistics 1934–1951. Oxford University Press.
- Sinclair, J. (1991). Corpus, Concordance, Collocation. Oxford University Press.
- Halliday, M.A.K. (1985). An Introduction to Functional Grammar. London: Edward Arnold.
- Cowie, A.P. (1998). Phraseology: Theory, Analysis and Applications. Oxford University Press.
- Carter, R., & McCarthy, M. (1988). Vocabulary and Language Teaching. Longman.
- Leech, G. (1969). A Linguistic Guide to English Poetry. London: Longman.
- Moon, R. (1998). Fixed Expressions and Idioms in English: A Corpus-Based Approach. Oxford: Clarendon Press.